XORAZM VILOYATI XONQA TUMANI HOKIMINING QARORI

Xonqa shaharchasi, Xalqlar do‘stligi ko‘chasi, 30-uy

2021 - yil 21 - dekabr 161-12-175-Q/21 Xonqa tuman hokimligi

2022 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to’g’risida”gi O‘RQ 642-sonli Qonuni hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to’g’risida”gi Nizomga asosan, tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Xonqa tumanida 2022-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo’yicha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ro’yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu qarorning 1-ilovasida ko’rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xodimlarning ro’yxati bo’yicha o’rtacha sonidan kelib chiqqan holda 91 kishini tashkil etadigan, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 12 ta ish o’rni;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 71 ta ish o’rni;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 3 ta ish o’rni;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3 ta ish o’rni;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 2 ta ish o’rni;

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o’rinlari xodimlar tomonidan o’zlarining mehnat majburyatlarini to’siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya va gigiena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo’lishi ta’minlansin, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun — bolalarni tarbiyalash majburiyatlari va mehnat majburiyatlari bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan hamda “Mehribonlik” uylari bitiruvchilari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga hamda mutaxassisligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

muddatli harbiy xizmatdan bo’shatilganlar uchun ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun — mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga sog‘lig‘ining holatini hamda mehnat faoliyatiga doir belgilangan qarshi ko‘rsatmalar hisobga olingan holda mehnat majburiyatlarini moneliksiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari.

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari xarakterli talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish o‘rinlari tashkil qilinsin.

4. Tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarga ko’rsatilgan ish o’rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston

Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro’yxatga olingan, ro’yxat raqami 3163) buyrug’iga asosan subsidiya ajratib berish tartibi bo’yicha ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga — har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash belgilanganligi inobatga olinsin.

7. Ushbu qarorning ikkinchi ilovasida ko’rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan kasb va lavozimlar tashkil qilinsin.

8. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o’rinlarini band qilib qo’yish bo’yicha mazkur qaror ijrosini bajarmagan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning mansabdor shahslariga O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksiga ko’ra ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

9. Xonqa tuman Aholi bandligiga ko’maklashish markazi besh kun muddatda ushbu qarorni 1-ilovasida ko’rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazsin.

10. Ushbu qaror 2022-yil 1-yanvardan kuchga kirishi munosabati bilan tuman hokimining 2020-yil 25-sentabrdagi 956Q-sonli qarori o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

12. Tuman hokimligining axborot hizmati boshlig‘i (SH.Xujaniyozo‘v) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

13. Ushbu qaror “Xonqa hayoti” gazetasida e’lon qilinsin.

14. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o’rinbosari (X.Qurbonov) tuman Aholi bandligiga ko’maklashish markazi direktori R.Yusupov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **М.Давлатов**

Хонқа туман ҳокимининг
2021 йил 21 декабрдаги
161-12-175-Q/21-сон қарорига
1-илова

2022 yilda Xonqa tumani bo’yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo’yilgan ish o’rinlari to’g’risida

MA'LUMOT

№	Xududlar nomi	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo’yish taklif etilayotgan ish o’rinlari soni	shu jumladan:								
				14 yoshga to’lmagan bolalari, nogironligi bo’lgan bolalari bor yolg’iz otaga yoki onaga, shuningdek ko’p bolali oilalarning ota-onalar uchun band qilingan ish o	umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo’lgan yoshlar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	«Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo’yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o’rinlari soni	muddatli harbiy xizmatdan bo’shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	nogironligi bo’lgan shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko’ra o’ziga nisbatan tibbiy yo’sindagi majburlov choralari qo’llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	odam savdosidan jabrlanganlar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tug’dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun ish o’rinlari soni
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	Xonqa tuman	27	91	12	50	21	3	3	0	2	0	0
Jami:			**91**	**12**	**50**	**21**	**3**	**3**	**0**	**2**	**0**	**0**

Хонқа туман ҳокимининг
2021 йил 21 декабрдаги
161-12-175-Q/21-сон қарорига
2-илова

2022-yilda Xonqa tumani bo’yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo’yilgan ish o’rinlari to’g’risida

M A ' L U M O T

№	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro’yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo’yicha xodimlarining umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo’yish taklif etilayotgan ish o’rinlari soni	shu jumladan:							
				14 yoshga to’lmagan bolalari, nogironligi bo’lgan bolalari bor yolg’iz otaga yoki onaga, shuningdek ko’p bolali oilalarning ota-onalar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo’lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo’yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o’rinlari soni	muddatli harbiy xizmatdan bo’shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	nogironligi bo’lgan shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko’ra o’ziga nisbatan tibbiy yo’sindagi majburlov choralari qo’llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	odam savdosidan jabrlanganlar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tug’dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun ish o’rinlari soni
1	Xonqa tumani tibbiyot birlashmasi	1211	39	2	36	0	1	0	0	0	0
2	"OBI HAYOT INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati	177	6	0	4	2	0	0	0	0	0
3	7-son Bolalar musiqa va san'at maktabi	37	1	1	0	0	0	0	0	0	0
4	OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	265	8	2	3	0	2	0	1	0	0
5	XONQA TUMANI YO'LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI	61	2	0	0	1	0	0	1	0	0
6	XONQA TUMANI 37-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	94	3	1	2	0	0	0	0	0	0
7	XONQA TUMANI 8-SON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	35	1	0	1	0	0	0	0	0	0

8	XONQA TUMANI 38-SON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	37	1	0	1	0	0	0	0	0	0
9	Xonqa tumani 10-son maktabgacha ta'lim muassasasi	59	2	0	2	0	0	0	0	0	0
10	"XONQA TUMANI 16-SON" maktabgacha ta'lim muassasasi	25	1	0	1	0	0	0	0	0	0
11	XONQA TUMANI 7-SON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	39	1	1	0	0	0	0	0	0	0
12	XONQA TUMANI 43-SON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	25	1	0	1	0	0	0	0	0	0
13	"XONQA TUMANI 42-SON" maktabgacha ta'lim muassasasi	24	1	0	1	0	0	0	0	0	0
14	XONQA TUMANI 24-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	36	1	0	1	0	0	0	0	0	0
15	XONQA TUMANI 35-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	51	2	1	1	0	0	0	0	0	0
16	XONQA TUMANI 5-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	57	2	0	2	0	0	0	0	0	0
17	XONQA TUMANI 13-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	58	2	1	1	0	0	0	0	0	0
18	XONQA TUMANI 41-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	42	1	0	1	0	0	0	0	0	0
19	XONQA TUMANI 10-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	49	2	1	1	0	0	0	0	0	0
20	XONQA TUMANI 20-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	62	2	0	2	0	0	0	0	0	0
21	XONQA TUMANI 33-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	61	2	1	1	0	0	0	0	0	0
22	XONQA TUMANI 25-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	52	2	1	1	0	0	0	0	0	0
23	XONQA TUMANI 29-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	63	2	0	2	0	0	0	0	0	0
24	XONQA TUMANI 22-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	25	1	0	1	0	0	0	0	0	0

25	XONQA TUMANI 34-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	48	2	0	2	0	0	0	0	0	0
26	XONQA TUMANI 36-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	30	1	0	1	0	0	0	0	0	0
27	XONQA TUMANI 17-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	62	2	0	2	0	0	0	0	0	0
	жами:	2785	91	12	71	3	3	0	2	0	0

Хонқа туман ҳокимининг
2021 йил 21 декабрдаги
161-12-175-Q/21-сон қарорига
3-илова

Korxona, tashkilot va muassasalarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan kasb va lavozimlar

R O' Y X A T I

№	Korxona tashkilot, muassasalar nomi	Xodimlar-ning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni	Band qilib qo'yilgan ish o'rinlarining eng kam belgilangan miqdori	Ko'rsatilgan ish o'rinining kasbi va lavozimi
1	Xonqa tumani tibbiyot birlashmasi	1211	39	shifokor, hamshira, sanitarka, qorovul, xaydovchi
2	"OBI HAYOT INJINIRING" mas`uliyati cheklangan jamiyati	177	6	ishchi
3	7-son Bolalar musiqa va san'at maktabi	37	1	o'qituvchi
4	OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	265	8	mutaxassis, obodonlashtirish ishchisi, qabriston qorovuli, qabriston nazoratchisi
5	XONQA TUMANI YO'LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI	61	2	mutaxassis, yo'l ishchisi
6	XONQA TUMANI 37-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	94	3	o'qituvchi, farrosh, ishchi
7	XONQA TUMANI 8-SON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	35	1	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, xovli ishchisi, qorovul,
8	XONQA TUMANI 38-SON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	37	1	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, xovli ishchisi, qorovul,
9	Xonqa tumani 10-son maktabgacha ta'lim muassasasi	59	2	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, xovli ishchisi, qorovul,
10	"XONQA TUMANI 16-SON" maktabgacha ta'lim muassasasi	25	1	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, xovli ishchisi, qorovul,
11	XONQA TUMANI 7-SON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	39	1	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, xovli ishchisi, qorovul,
12	XONQA TUMANI 43-SON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	25	1	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, xovli ishchisi, qorovul,
13	"XONQA TUMANI 42-SON" maktabgacha ta'lim muassasasi	24	1	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, xovli ishchisi, qorovul,
14	XONQA TUMANI 24-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	36	1	o'qituvchi, farrosh, ishchi
15	XONQA TUMANI 35-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	51	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi

16	XONQA TUMANI 5-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	57	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
17	XONQA TUMANI 13-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	58	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
18	XONQA TUMANI 41-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	42	1	o'qituvchi, farrosh, ishchi
19	XONQA TUMANI 10-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	49	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
20	XONQA TUMANI 20-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	62	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
21	XONQA TUMANI 33-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	61	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
22	XONQA TUMANI 25-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	52	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
23	XONQA TUMANI 29-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	63	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
24	XONQA TUMANI 22-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	25	1	o'qituvchi, farrosh, ishchi
25	XONQA TUMANI 34-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	48	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
26	XONQA TUMANI 36-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	30	1	o'qituvchi, farrosh, ishchi
27	XONQA TUMANI 17-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	62	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
xx	**ЖАМИ**	**2785**	**91**	